



XALQARO HUQUQDA DAVLATLARNING JAVOBGARLIGI MASALALARI YUZASIDAN ODAT HUQUQINING O'RNINI VA AHAMIYATI

Akmaldinov Yahyobek Xasanboy o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Ommaviy huquq fakulteti, 2-bosqich talabasi
E-mail: akmaldinovyahyobek@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20486616>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil
Ma'qullandi: 28-may 2026 yil
Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

KEY WORDS

*xalqaro huquq, xalqaro odat
huquqi normalari, davlatlarning
xalqaro javobgarligi, opinio juris,
ICJ sud amaliyoti.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada muallif tomonidan xalqaro huquqda davlatlarning javobgarligi institut hamda bu jarayonda xalqaro odat huquqining tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Xususan, davlatlar tomonidan xalqaro huquq normalari buzilishi holatlarida javobgarlikni belgilashda odat huquqining muhim manba sifatidagi roli yoritiladi. Mazguga daxldor bo'lgan ilmiy maqolalar, xorijiy va milliy adabiyotlar hamda xalqaro sudlar amaliyotida odat huquqining qo'llanilishi orqali uning dolzarbligi va amaliy ahamiyati o'rganiladi.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyatda globallashuv jarayoni rivojlanib borishi natijasida davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro mintaqaviy bog'liqlik hamda hamkorlik masalalarining ahamiyati ham ortib bormoqda. Shu jumladan hozirgi zamonaviy xalqaro huquq tizimida asosiy subyektlar hisoblangan davlatlarning javobgarligi instituti ham alohida ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Davlatlar o'rtasida huquqiy munosabatlar yildan yilga murakkablashib borayotgan bir paytda xalqaro-huquqiy javobgarlik mexanizmlarining shakllanishi va samarali faoliyat yuritishi global xavfsizlik, insoniyatning tinchligi hamda davlatlararo munosabatlarda barqarorlikni ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur huquqiy mexanizmlar ichida xalqaro odat huquqi o'zining tarixiy rivojlanish xususiyatlari, nazariy va amaliy jihatdan mustahkamligi hamda universal qo'llanuvchanligi bilan alohida e'tiborga loyiq hisoblanadi. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda xalqaro odat huquqining ahamiyatini xalqaro huquqning yozma normalari bilan to'liq tartibga solinmagan ko'plab huquqiy holatlarda aynan xalqaro odat huquqi davlatlar javobgarligini belgilovchi asosiy mezon sifatida xizmat qilishidan ham tushunib olishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishganidan so'ng xalqaro-huquqiy munosabatlarda teng huquqli subyektlik maqomiga ega bo'lib, davlatlar bilan munosabatlarda xalqaro shartnomalarga qo'shilib, o'z zimmasiga turli majburiyatlarni olgan hamda bu hol davom etmoqda. Shundan kelib chiqsak, xalqaro huquqda davlatlarning javobgarligini belgilovchi odat huquqining o'rnini O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan munosabatlarda siyosiy barqarorligi hamda tashqi siyosatdagi qat'iy pozitsiyasini belgilab olishda muhim ahamiyatga ega. Mana shu omillarni hisobga olgan holda davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi masalalarini hal qilish borasida odat huquqining vazifasi hamda funksional ahamiyatini tizimli o'rganish hamda tahlil qilish

bugungi kunda ham xalqaro huquq sohasida o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda deya olamiz.

Xalqaro hamjamiyatda davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan odat huquqi tarixan o'ziga xos davrlarda shakllanib kelgan. Odat huquqi davlatlar amaliyotida yozma shartnomalardan ancha avval vujudga kelgan bo'lib, davlatlararo munosabatlarda muayyan qoidalarning uzoq muddat davomida takroran amaliyotda bo'lishi, umumiy xalqaro siyosatda keng qo'llanilishi hamda keyinchalik ushbu xalqaro huquq subyektlari uchun majburiy yuridik ahamiyatga ega bo'lishi bilan ifodalanadigan qoidalarni o'zida ifodalaydigan xalqaro huquqning asosiy manbaalaridan biri hisoblanadi.

Umumiy asosda tahlil qilsak odat huquqi bu – davlatlar tomonidan takrorlanib, siyosiy amaliyotda (state practice) bajariladigan hamda davlatlar tomonidan xalqaro munosabatlarda huquqiy majburiyat sifatida shakllanish natijasida paydo bo'lgan xalqaro huquqning manbaasidir. **“Xalqaro ommaviy huquq”** darsligiga ko'ra¹ xalqaro odatlar xalqaro-huquqiy munosabatlar subyektlarining yetarli darajadagi uzoq muddatli takrorlanuvchi harakatlari davomida yuzaga keladi”. Ushbu fikrdan kelib chiqsak xalqaro odat huquqining quyidagi o'ziga xos jihatlarini tahlil qilishimiz mumkin: ***birinchidan***, odat huquqi davlatlar amaliyotida uzoq muddat davomida shakllanib boradi, ***ikkinchidan***, odat huquqi xalqaro-huquqiy munosabatlarning subyektlari faoliyatida shakllanadi. Bu borada, Jan Klabbers o'zining **“International Law”** kitobida *“Xalqaro odat huquqining subyektlari xalqaro hamjamiyatning subyektlari – davlatlar”*² ekanligini ham alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, Jan Klabbersning fikriga ko'ra muayyan bir qoidalarni odat huquqi normalari sifatida tan olinishi uchun uning uzoq vaqt davomida amal qilishi talab qilinmasligi ham mumkin. Shunchaki u davlatlararo amaliyotda keng qo'llanilishining o'zi ham uni xalqaro odat huquqi sifatida tan olinishi mumkin ekanligini 1969-yildagi Xalqaro Adolat Sudi tomonidan ko'rib chiqilgan “North Sea Continental Shelf Cases (Germany/Denmark; Germany/Netherlands) [ICJ] Reports³, para 73. Orqali ham ta'kidlab o'tgan³. Yuqorida olimlar tomonidan berilgan fikrlardan kelib chiqqan holda hamda mavjud tushunchalarimizni umumlashtirgan holda odat huquqi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega deya olamiz:

❖ Davlatlar tomonidan takrorlanib bajariladigan hamda umumiy shakllangan bo'ladi;	❖ Davlatlar tomonidan ushbu odatlar takrorlanib qo'llanilgani uchun emas, o'zlari uchun yuridik jihatdan majburiy deb hisoblaganlari uchun qo'llaniladi (<i>opinio juris</i>);
❖ Odatda ularning shakllanishi uchun uzoq davr talab qilinadi, ba'zida istisno bo'lishi mumkin;	❖ Garchi muayyan huquqiy hujjatlarda qayd etilmagan bo'lsada, huquqiy kuchga ega bo'ladi;

¹ Xalqaro ommaviy huquq[Matn]: darslik /A.X. Saidov va boshqalar. – T.: TDYU nashriyoti, 2023, - 89-bet

² Klabbers, J. (2013). *International law* (p. 58). Cambridge University Press.8

³ Klabbers, J. (2013). *International law* (p. 59). Cambridge University Press.

❖ *Xalqaro huquqning manbaasi sifatida barcha davlatlar amaliyotida qo'llanilishi majburiy bo'ladi;*

❖ *Xalqaro shartnomalar asosida eski huquqiy odatlar mustahkamlanadi hamda rivojlanib boradi.*

Yana shu jihatni ham inobatga olish maqsadga muvofiqdirki, olimlarning boshqa bir guruhi xususan Ian Brownlie muallifligida yozilgan "The principles of Public International Law" asarining "Huquq manbaalari" (Source of law) deb nomlangan IV bobiga ko'ra (sahifasida) "**Customary rules are legally binding and do not require treaty acceptance**"⁴ ya'ni "odat huquqi normlari davlatlar tomonidan shartnomalar bilan ma'qullanmagan bo'lsa ham yuridik jihatdan majburiy bo'ladi" deya ta'kidlanadi. Fikrimizcha, bugungi kun zamonaviy xalqaro huquq tizimida odat huquqiga nisbatan berilgan ushbu ta'rif juda ham o'rindir. Chunki klassik odat huquqiga yaqqol misol bo'la oladigan, uzoq davrlar mobaynida qabul qiluvchi davlatning sudlaridagi ma'muriy, fuqarolik hamda jinoiy javobgarlik masalalaridan ozod etilgan – **diplomatik immunitet huquqi** yoki odat huquqida o'rta asrlardan shakllangan har bir davlatning o'z kemasini ochiq dengizlarda erkin harakatlanish huquqiga ega bo'lishini ifodalaydigan – **dengizda erkin harakatlanish huquqi** (freedom of navigation) kabi odat huquqi namunalari biron bir davlat tomonidan xalqaro shartnomalar orqali tartibga solinishi yoki aksinchaligidan qat'iy nazar xalqaro huquq subyektlari uchun majburiy ahamiyatga ega bo'lgan qoidalar sifatida namoyon bo'ladi hamda keng qo'llanib kelinadi. Bunda tashqari odat huquqi har doim ham dunyoning barcha davlatlari amaliyotida majburiy xarakterga ega bo'lib, yuridik jihatdan kuchga ega hisoblanavermaydi. Odat huquqining qoidalari xalqaro huquqda "**Persistent objector**" ya'ni "Doimiy qarshilik qiluvchi" (davlatga nisbatan) deb ataladigan subyektlarga nisbatan tatbiq etilmasligi ham mumkin. Ushbu turdagi xalqaro huquq subyektlari xususida **Ian Brownlie** o'zining "The Principles of International Law" asarida⁵ - "*Doimiy qarshilik qiluvchi davlat odat huquqining qo'llanilishidan qutulib qoladi*"⁶ deb aytsa, **Malcolm Shaw** esa o'zining "International Law" kitobida – "*Xalqaro odat huquqi qoidalariga ular yaratilayotgan paytdan boshlab ochiqchasiga hamda doimiy qarshilik qilgan davlat odat huquqiga bo'ysunmasligi mumkin*"⁷ deb aytadi. Shuningdek, **James Crawford** "Brownlie's Principles of Public International Law" ya'ni "Brownlining xalqaro ommaviy huquq tamoyillari" asarida "persistent objector" subyektlarni xalqaro huquqdagi odatiy tamoyillarga amal qiladigan emas balki "**noan'anaviy holat**"⁸ deya ta'kidlaydi.

Yuqorida ta'kidlangandek, davlatlar tomonidan odat huquqi normalari o'z faoliyatida amal qilinishi majburiy bo'lgan qoida sifatida tan olinadi. Xo'sh agar davlatlar tomonidan odat huquqi yoki xalqaro huquq sohasidagi majburiyatlar buzilsa, odat huquqining davlatlarga nisbatan javobgarlik belgilashda qanday rol o'ynaydi? Uning ahamiyati bormi aslida?

Demak, xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida davlatlarning javobgarligi bu – davlatlar tomonidan xalqaro majburiyatlar buzilganda ularga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir

⁴ Brownlie, I. (2008). *Principles of Public International Law* (7th ed., p. 4). Oxford University Press.

⁵ Brownlie, I. (2008). *Principles of Public International Law* (7th ed., pp. 7–9). Oxford University Press.

⁶ Brownlie, I. (2008). *Principles of Public International Law* (7th ed., pp. 7–9). Oxford University Press.

⁷ Shaw, M. N. (2017). *International Law* (8th ed., pp. 72–74). Cambridge University Press.

⁸ Crawford, J. (2012). *Brownlie's Principles of Public International Law* (8th ed., pp. 24–26). Oxford University Press

choralari hisoblanadi⁹. Bunda davlatlar o'zaro munosabatlarda xalqaro shartnomalar hamda boshqa yozma hujjatlar asosida tartibga solinmagan boshqa holatlar uchun ham odat huquqining normalarini qo'llashga haqli hisoblanadi. Bunda davlatlar odat huquqi normalari orqali xalqaro majburiyatlarni bajarilishini talab qilishga hamda har qanday xalqaro jihatdan noto'g'ri hisoblangan (Internationally wrongful act) harakatlar davlatlarning javobgarligiga olib keladigan qoidalarni belgilashi mumkin¹⁰. Bunda davlatlar odat huquqiga tayangan holda zararni tiklash hamda yetkazilgan zararni kompensatsiya qilishni zarar yetkazgan tomondan talab qilib olish huquqiga ega bo'ladi (bunga daxldor sud ishi keyinroq tahlil qilinadi).

Xususan, 2001-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Xalqaro huquqa zid harakatlar uchun davlatlarning javobgarligi to'g'risida" nomli A56/10-sonli Rezolyutsiyasi 56-moddasida "Xalqaro huquqning qoidalari, garchi ushbu rezolyutsiya bilan tartibga solinmagan bo'lsa ham davlatlarning xalqaro huquqbuzarlik uchun javobgarligiga oid masalalarni tartibga solishda amal qiladi"¹¹ deyilgan. Bundan kelib chiqadiki, xalqaro odat huquqining normalari ham garchi xalqaro huquqning yozma manbaalari yordamida rasmiylashtirilmasa hamda belgilab qo'yilmasa ham, xalqaro huquqbuzarlik uchun davlatlarning javobgarligini belgilashda cheklovlarsiz qo'llanilishi mumkin.

Odat huquqining xalqaro huquq manbaasi sifatida tan olinishi hamda xalqaro amaliyotda davlatlar uchun odat huquqi normalariga asoslangan holda javobgarlik choralarining belgilanishi bilan bog'liq masalalar bir qator xalqaro huquqning asosiy manbaalari hisoblangan hujjatlarda o'z aksini topgan. Dastlab odat huquqi mustahkamlangan xalqaro huquq manbasi bu – BMT Nizomi hisoblanadi. **Nizomning 51-moddasida** "o'zini-o'zi himoya qilish" huquqi mustahkamlangan. Unga ko'ra biror bir davlatga harbiy hujumlar uyushtirilsa, u o'zini himoya qilish huquqiga ega hisoblanadi. Aslida xalqaro huquqda ushbu odat Nizomda belgilanishidan oldin ham davlatlar amaliyotida qo'llanib kelingan. Ushbu holat yuzasidan 1986-yilda Xalqaro Adolat Sudi tomonidan Nikaragua hamda AQSH o'rtasidagi mojaroda "o'zini-o'zi himoyalashga bo'lgan huquqni odat huquqi sifatida tan oladi"¹². Bundan tashqari aynan ushbu qoida BMT Nizomining 2-moddasi, 4-bandida "Davlatlar o'zaro qurolli kuch ishlatish yoki tahdid qilishdan tiyiladi" degan qoida belgilangan. Yuqorida keltirilgan 1986-yilgi vaziyatda ham Xalqaro Adolat Sudi tomonidan ushbu qoida qo'llangan paytda ushbu huquq odat huquqi sifatida tan olinadi hamda, davlatlar BMT a'zosi hisoblanmasa ham bu norma amal qiladi deb izoh berilgan. Bundan tashqari **1961-yilda** qabul qilingan "**Diplomatik aloqalar to'g'risidagi**" Vena konvensiyasi bitimida avvaldan davlatlar tomonidan odat sifatida qabul qilingan diplomatik immunitet huquqi yana bir bor rasmiylashtirilgan. Ushbu odat huquqi yuzasidan 1980-yilda Amerika hamda Tehron o'rtasida nizoli vaziyat yuzaga kelgan bo'lib, Xalqaro Adolat Sudi bu ishni hal qilishda – "diplomatik daxlsizlik odat huquqi normalaridan biridir" deb e'tirof etilgan¹³. Shuningdek odat huquqi normalari **1969-yilgi "Shartnomalar huquq to'g'risida"** Vena konvensiyasi bitimlarida ham e'tirof etib o'tilgan. Xususan, ushbu bitimning 26-moddasida (pacta sunt servanda) "Har bir shartnoma unda ishtirok etuvchi davlatlar

⁹ J. Crawford, *The International Law Commission's Articles on State Responsibility*, Cambridge University Press, 2002

¹⁰ International Law Commission (ILC), *Draft Articles on Responsibility of States for Internationally Wrongful Acts*, 2001

¹¹ https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/draft_articles/9_6_2001

¹² International Court of Justice, *Nicaragua v. United States* (1986)

¹³ *United States Diplomatic and Consular Staff in Tehran Case* (1980)

tomonidan vijdonan bajarilishi kerak” deb belgilangan. Bunda shartnomalarning vijdonan bajarilishi bilan bog’liq qoidalar odat huquqi asosida davlatlar amaliyotida shakllangan qoidalar bilan tartibga solinishini yana bir bor ta’kidlash joizdir. Shunga o’xshash qoidalarni **1949-yilda qabul qilingan Jeneva konvensiyalarida** uchratishimiz mumkin. Mazmunan ushbu konvensiyalarda urush udum hamda odatlariga daxldor jihatlardan biri – harbiy mojarolar hamda urushlar davrida asirlar, tinch aholi vakillari hamda yarador shaxslarga nisbatan insoniy munosabatda bo’linishi bilan bog’liq qoidalar mustahkamlangan¹⁴.

Fikrimizcha, odat huquqini davlatlarga nisbatan javobgarlikni belgilashga nisbatan tatbiq qilish masalasi Xalqaro huquq komissiyasi (International Law Commission) tomonidan 2001-yilda ishlab chiqilgan **“Davlatlarning xalqaro noto’g’ri harakati uchun javobgarligi to’g’risidagi loyihaviy moddalar”**¹⁵ nomli hujjatda batafsil yoritib berilgan. Ushbu hujjatning 2-moddasiga asosan davrlarning xalqaro huquq sohasidagi javobgarligi 2 ta asosga ko’ra vujudga keladi:

- ❖ *Davlat tomonidan sodir etilgan xatti-harakat yoki harakatsizlik;*
- ❖ *Ushbu harakat yoki harakatsizlik natijasida xalqaro majburiyatlarning buzilishi;*

Ushbu hujjatning **12-moddasida** xalqaro majburiyatning buzilishiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Agar davlat tomonidan amalga oshirilgan harakat uning xalqaro majburiyatlariga zid bo’lsa majburiyat buzilgan hisoblanadi”¹⁶. Demak ushbu holat ham xalqaro odat huquqi bilan bevosita bog’liq ekanligini ko’rishimiz mumkin. Ya’ni odat huquqiga ko’ra davlatlar xalqaro munosabatlarda o’z majburiyatlariga amal qilishi zarur. Shuningdek ushbu hujjatning 28-hamda 31-moddalarida yuqorida aytganimizdek odat huquqi normalari (majburiyatlarning buzilishi) buzilganda bir qator javobgarlik choralari nazarda tutilgan. Xususan, **28-moddasiga asosan** “Davlat tomonidan noto’g’ri harakat tugatilishi hamda huquq buzilishining oqibatllari bartaraf etilishi”, **31-moddasiga** asosan esa majburiyatni buzgan taraf moddiy yoki ma’naviy zararlar uchun javob berishi lozimligi bayon qilingan.

Bilamiz xalqaro huquq tizimi vujudga keladigan nizolarni faqat yozma shartnomalar asosida emas, balki davlatlar amaliyoti asosida shakllangan odat huquqi normalariga tayangan holda ham hal qiladi. Fikrimizcha, xalqaro huquq sohasida odat huquqi normalarining qo’llanilishi hamda xalqaro-huquqiy munosabatlarni tartibga solishdagi odat huquq normalarining ahamiyatini anglashda katta o’ringa ega bo’lgan keys bu – 1986-yilda AQSH hamda Nikaragua o’rtasida yuz bergan holatdir¹⁷. Voqealar rivoji quyidagicha:

1980-yillarda Nikaragua davlatida hukumat tepasiga kelgan Sandinist hokimiyatiga qarshi qurolli guruhlar faoliyat olib bora boshlaydi (“contrlar” deb atashgan). Ushbu qurolli guruhlarining faoliyati AQSH tomonidan moliyalashtiriladi hamda ularga nisbatan moddiy hamda harbiy-texnik yordamlar ko’rsatiladi. Ushbu vaziyatdan norozi bo’lgan Nikaragua hukumati 1984-yilda Xalqaro Adolat Sudiga murojaat qilib, AQSH xalqaro huquqni buzishda ayblaydi. Garchi AQSH tomonidan Xalqaro Adolat Sudining yurisdiksiyasi o’sha davrda tan olinmasa ham sud ishni ko’rib chiqishga qaror qiladi.

¹⁴ <https://www.icrc.org/sites/default/files/external/doc/en/assets/files/publications/icrc-002-0173.pdf>

¹⁵ https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/draft_articles/9_6_2001.pdf

¹⁶ Responsibility of States for Internationally Wrongful Acts 2001 // Article 12

¹⁷ “Nikaragua v. AQSH” (ICJ, 1986)

Sud tomonidan ishni ko'rib chiqish vaqtida davrlarning o'zaro qurolli kuch ishlatmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik hamda davlat suverenitetini xurmat qilinishi kabi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga odat huquqi normalari sifatida yondashiladi¹⁸. Ish yakunlariga ko'ra sud AQSHni qurolli guruhlarini moliyalashtirish va harbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, Nikaragua portlaridan minalar joylashtirish, hamda Nikaraguaning suvereniteti hamda ichki ishlariga bevosita aralashish orqali xalqaro huquqning odat huquq normalarini buzishda aybdor deb topadi hamda yetkazilgan zararni bartaraf etish majburiyatini javobgarlik chorasi sifatida tayinlaydi. Garchi AQSH tomonidan sudning ushbu talabi bajarilmagan bo'lsada, xalqaro huquqda sud tomonidan odat huquqining tan olinishi, odat huquqi qaror chiqarishga asos bo'lishi mumkinligi, davlatlarning javobgarligi masalasi odat huquqi normalari asosida hal qilinishi mumkin ekanligini bu keys amalda isbotlab berdi. Keyinchalik ushbu qoidalar 2007-yilda Bosniya hamda Serbiya o'rtasidagi, 2005-yilda esa Congo hamda Uganda o'rtasidagi nizolarni hal qilishda ham Xalqaro Adolat Sudi tomonidan qo'llanilganligini eslatib o'tish joizdir.

Yuqorida biz tomonimizdan tahlil qilingan mulohazalardan kelib chiqib zulosa qilish mumkinki, xalqaro huquq sohasida davlatlarning javobgarligini belgilovchi normalar nafaqat shartnomalar balki yozma ko'rinishga ega bo'lmagan xalqaro odat huquq normalari orqali ham mustahkamlanishi mumkin. Odat huquqi normalari davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda barqaror qo'llanilishi, keng tarqalganligi hamda yuridik majburiyat sifatida shakllanganligi bois ham davlatlar uchun majburiy xususiyatga ega bo'ladi. Davlatlarning javobgarligi masalasini yuzaga kelishi odatda xalqaro-huquqiy majburiyatlarning buzilishi bilan bog'liq holatda vujudga kelganligi bois, odat huquqi normalari muhim huquqiy mezon sifatida xizmat qiladi. Shu fikrlardan kelib chiqqan holda biz tomonimizdan BMT Nizomining prinsiplar, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari, turli xalqaro shartnomalar, Xalqaro Adolat Sudi amaliyoti (Nikaragua va AQSH keysi) hamda Xalqaro Huquq Komissiyasi (International Law Commission) tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar asosida odat huquqi asosidagi xalqaro javobgarlik mexanizmi keng yoritib berildi.

Shu munosabat bilan xalqaro odat huquq normalari davlatlarning o'zaro harakatlarni huquqiy nazorat ostida saqlab turuvchi, yozma shartnoma hamda bitimlarsiz ham o'zaro majburiyatlarni vujudga keltiruvchi hamda xalqaro tartibni ta'minlovchi asosiy vosita sifatida katta ahamiyatga ega. U ayniqsa davlatlar o'rtasidagi harbiy mojarolar, qurolli to'qnashuvlar, suverenitetning buzilishi, hududiy yaxlitlik masalalari hamda xalqaro huquq prinsiplarining buzilishi yuzasidan nizolarni hal etishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Shu sababdan ham odat huquqi nafaqat xalqaro huquq tizmining tayanch qismlaridan biri, balki davlatlarning xalqaro huquq sohasida javobgarligini belgilashda ham barqaror hamda universal bo'lgan huquqiy asos deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saidov, A. X., & boshqalar. (2023). Xalqaro ommaviy huquq: darslik. TDYU nashriyoti.
2. Klabbbers, J. (2013). International law. Cambridge University Press.
3. Brownlie, I. (2008). Principles of public international law (7th ed., pp. 7–9). Oxford University Press.

¹⁸ Military and Paramilitary Activities in and against Nicaragua (Nicaragua v. USA), ICJ, 1986, para. 188

4. Shaw, M. N. (2017). *International law* (8th ed., pp. 72–74). Cambridge University Press.
5. Crawford, J. (2012). *Brownlie’s principles of public international law* (8th ed., pp. 24–26). Oxford University Press.
6. Crawford, J. (2002). *The International Law Commission’s articles on state responsibility*. Cambridge University Press.
7. International Law Commission. (2001). *Draft articles on responsibility of states for internationally wrongful acts*. United Nations.
8. International Committee of the Red Cross. (1949). *The Geneva Conventions of 12 August 1949*.
<https://www.icrc.org/sites/default/files/external/doc/en/assets/files/publications/icrc-002-0173.pdf>
9. United Nations. (1969). *Vienna Convention on the law of treaties*.
https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/1_1_1969.pdf
10. International Court of Justice. (n.d.). *Case concerning the Barcelona Traction, Light and Power Company, Limited (Belgium v. Spain)*. <https://www.icj-cij.org/case/70/judgments>
11. International Court of Justice. (n.d.). *North Sea Continental Shelf Cases (Federal Republic of Germany v. Denmark; Federal Republic of Germany v. Netherlands)*.
<https://www.icj-cij.org/case/64>
12. International Court of Justice. (1986). *Military and Paramilitary Activities in and against Nicaragua (Nicaragua v. United States of America)*, Judgment of 27 June 1986, I.C.J. Reports 1986, p. 14. <https://www.icj-cij.org/case/70>
13. International Court of Justice. (1980). *Case concerning United States Diplomatic and Consular Staff in Tehran (United States of America v. Iran)*, Judgment of 24 May 1980, I.C.J. Rep. 1980, p. 3. <https://www.icj-cij.org/case/64>